

O'ZBEK MILLIY DRAMATURGIYASINING SHAKLLANISHI

Fotima Ismoilova Izzat qizi*O'zDSMI "San'atshunoslik: sahna va ekran san'ati dramaturgiyasi"**3-bosqich talabasi +998945850306*

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek milliy dramaturgiyasining qanday yuzaga kelgani, kimlar unda o'z faoliyatini olib borgani hamda qanday olib borgani haqida hikoya qilinadi.

Kalit so'zlar: Yevropa tipidagi teatr, Abdulrauf Samadov, "Padarkush", "Poetika", madaniy yodgorliklar va boy tarix, truppalar, "Zaharli hayot".

Bilamizki, XX asr boshlarida mamlakatimizda Yevropa tipidagi o'zbek milliy teatrini yaratish yo'lida qo'yilgan dastlabki qadamlar ko'plab tanqidlarga uchragan. Kimdir uni shariatga to'g'ri kelmaydi desa, yana kimdir musulmon qizlarini buzuqlikda ayblab turli xil maqolalar chiqarishgan. Shundan so'ng teatr asli qanday joyligi, uning foydalari haqida bir qancha maqolalar vujudga kelgan. O'zbek milliy teatri yaratilishi uchun u vaqtida yetarli darajada shart-sharoit bo'limgan. Avvalo buning uchun yozma dramaturgiya kerak edi va yozma milliy dramaturgiya 1911-yildan yuzaga kela boshladи.

Dramaturgiyadagi ilk qadamni Abdulrauf Samadov "Mahramlar" nomli pyesasi bilan boshlab beradi. So'ng Mahmudxo'ja Behbudiyning "Padarkush" pyesasi maydonga keladi. Ushbu pyesa sahnalashtirilgandan keyin tabiiyki ko'pchilik pyesa yozishga qiziqib qoladi. Shundan so'ng yozma dramaturgiyamiz yangi bir pog'onaga chiqib Abdurauf Fitrat, Abdulla Qodiriy, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Hoji Muin Shukrullo, Nusratullo Qudratullo kabilar o'zlarini dramaturgiyada sinab ko'rishadi. Ularning asarlari tez fursatda ommalashib, yuksak muvaffaqiyatlarga erishadi.

Dramaturgiyadagi eng mukammal asarlar Hamza Hakimzoda Niyoziyning ijodiy faoliyatida ko'zga tashlanadi. Sababini Aristotelning "Poetika" asarida yozilgan barcha ijod qonun-qoidalarga mos tushgan holda yozilgan deb izohlasak bo'ladi. Hamzaning asarlari shunday yozilishiga sabab o'sha davrda zulm, adolatsizlik, poraxo'rlik, o'zboshimchalik kabi illatlar kuchayib xalqning ahvoli og'irlashganligidir. U xalqni jabr-zulmdan qutqarish yo'llarini qidirgan holda o'z asarlarini yozgan edi. Hamzaning ijodi milliy ozodlik harakatlari bilan ham ulanib ketadi. U bu haqida shunday deb yozadi: "1905-yil ishchi inqilobini Namanganda o'rgandim. Qo'l matbaasi bilan mayda risolacha, e'lonlar chiqarib turuvchi bir tatar yigit bo'lib, men har haftada bir-ikki uning bilan suhbat qiladir edim. U meni xila dardlagan bo'lsa kerak, shul kundan boshlab eski podshohlar turmushidan "Haqiqat nimada?" ismli havosiz operali bir roman yozgan edim, o'g'irlatdim, bu kunki topilmaydir. Bundan buyongi she'rlarim milliy va inqilobi tuslarni ola boshladи." {1} Bu yozuvlar shuni ko'rsatadiki, u juda ham murakkab davrda yashagan bo'lishiga qaramay, ijod qilishda to'xtamagan va o'z xalqining ertangi kuni uchun tinmay harakat qilgan.

Boshqa tomondan, o'zbek teatri dramaturgiyasining yuzaga kelishida yana bir sabab bu o'zbek xalqining madaniy yodgorliklari hamda uning boy tarixi edi. Shu

jumladan, Hamza o'zbek xalqining ma'naviy, madaniy yodgorliklari, klassik adabiyoti, teatr, musiqa va raqs san'ati tarixi, an'analarini o'rganib ularni rivojlantirish ustida ko'plab ishlarni olib borgan. Bu borada u o'zbek teatri namoyondalari bilan doimiy aloqada bo'lib turgan. Bundan tashqari, o'zbek dramaturgiyasi yaratilishida rus, ozarbayjon, tatar va boshqa qardosh xalqlarning o'rni ham beqiyos bo'lgan. Chunki o'sha davrdagi gazetalardan bizning ajdodlarimiz ularning yozuvchilari haqida ma'lumotga ega bo'lishgan. Jumladan, Lermontov, Pushkin, Karamzin, Griboedov, Chexov, Turgenev, Ostrovskiy, Tolstoy, Gorkiy kabilar ular orasida juda ham mashxur bo'lgan. XIX oxiri va XX asr boshlarida yurtimizga kelgan xorijlik truppalar asosan Toshkent, Samarcand, Qo'qon kabi shaharlarda o'z ijodiy ishlarini namoyish etishgan bo'lsa, keyinchalik teatrlar ham ilk bor shu shaharlarda vujudga keladi. Hamza endi balog'atga yetayotgan davrlarida Qo'qonda rus, tatar, ozarbayjon kabi xalqlarning teatrlari ketma-ket gastrol safarlarini uyushtirishar, afishalarini tinimsiz o'zgartirishar, teatr binosi oldida duxovoy orkestr bo'lib, uning vazifasi tomoshabinlarni o'ziga jalg qilish edi. Bunday tomoshalardan tomoshabinlarni kayfiyati ko'tarilar, estetik zavqqa to'lib, undan ibrat ham olar edi. Shu tariqa Hamza rus teatriga, madaniyatiga juda katta qiziqish bildiradi. Shu orqali u teatrning tarbiyaviy rolini hamda uning jamiyatdagagi o'mini tushunadi.

Hamzaning dramaturgiyadagi ilk asari 1915-yilda yozilgan "Zaharli hayot"dir. U 1916-yilda Toshkentda chop etilib, Qo'qondagi tashkil topgan truppa ham o'z faoliyatini aynan shu pyesa bilan boshlaydi. Ushbu asarda yuqorida ta'kidlab o'tganimdek, jahon dramaturgiyasi an'analariga tayangan bo'lib, syujeti, mazmuni, obrazlari, mavzusi, g'oyasi jihatidan o'zbek xalq og'zaki dramaturgiyasidan tubdan farq qiladi. Hamza asarlaridagi obrazlarni yaratishda xoh u salbiy bo'lsin, xoh ijobiy u xalq og'zaki ijodi hamda klassik adabiyot an'analaridan foydalangan.

Hamzaning ijodiga Izzat Sultonov quyidagicha ta'rif beradi: "Hamzaning dramaturgiyasi o'zbek folklori vositalariga boy. Bu narsa ijobiy qahramonlarning bo'rttirib berilgan xarakteristikasida va salbiy qahramonlarning obrazlari giperbola tarzida chizilishida, xalq teatri prinsiplaridan keng foydalanishda yaqqol ko'rinish turibdi". {2}

Hamza o'zbek dramaturgiyasini yaratayotgan davr ijodiy izlanish yillari ekanligini hamda u o'z asarlarini orqali maqsadiga erishganini hisobga olsak, u o'zbek dramaturgiyasini yuksak bir pog'onaga olib chiqdi deya olamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mamajon Rahmonov. O'zbek teatri tarixi. 300-bet.
2. Muhsin Qodirov. O'zbek teatr an'analar. 281-bet.